

XALQ TA’LIMI TIZIMIDA O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH ISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

*Turaqulova Muxayyoxon Obidjonovna
Andijon viloyati Izboskan tumani
16-umumiy o‘rta ta’lim maktabi psixologiya*

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasb turlari va kasb tanlashda maktab psixologlarining o‘quvchilarga ta’siri, kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari, muammo va echimlar haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: hunar, kasb, qiziqish, qobiliyat, kasbiy reja, natija, psixolog, yondashuv.

Аннотация: в данной статье описаны виды профессий и влияние школьных психологов на учащихся, профориентация, проблемы и пути их решения.

Ключевые слова: ремесло, профессия, интерес, способности, профессиональный план, результат, психолог, подход.

Abstract: this article describes the types of professions and the influence of school psychologists on students, career guidance, problems and solutions.

Keywords: craft, profession, interest, abilities, professional plan, result, psychologist, approach.

O‘sib kelayotgan yosh avlodni kasbga yo‘naltirish hamisha davlatimiz, siyosatimiz oldida turgan ustuvor masalalardan sanalib kelingan. Mazkur jarayonni amalga oshirish uchun farzandlarimizning ota-onalari hamda ta’lim muassasalarining o‘rni va u erda faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilar hamda amaliyotchi psixologlarining faoliyati katta ahamiyatga ega. Shu maqsadda bugun yurtimizda ko‘plab qaror, farmonlar qabul qilinmoqda. Jumladan, 2020-yil 6-noyabr sanasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-sonli farmonining qabul qilinishi fikrimizning isbotidir. Kasb-hunarga yo‘naltirishdan maqsad o‘sib kelayotgan yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashdir. Ularni kasb hunarga yo‘naltirish orqali, bo‘ljak kasbiy qarorlarni shakillantirish, kasbni erkin va mustaqil tanlashlari uchun kasb-hunarga yo‘naltirish ishlariga mustahkam zamin yaratuvchi ilmiy-amaliy tizim sifatida qarash lozim. Bu tizim orqali har bir o‘quvchi shaxsini kasbga yo‘naltirishda individual xususiyatlarni ham xalq xo‘jaligi manfaatlari nuqtai nazardan mehnat resurslarini to‘laqonli ta’minlash zaruratini hisobga olish kerak. Lekin bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishning ilmiy amaliy tizimi etarlicha ishlab chiqilmagan, ilmiy pedagogik asoslari talab darajasida yaratilmagan.

Kasbga o‘rganish ham madaniyat va bu jarayonlardagi o‘zaro munosabatlar ham madaniyatdir. Agar o‘qituvchi o‘z o‘quvchisini kasb hunari yoki dars beradigan fani orqali tarbiyalamoqchi bo‘lsa, unga kasb madaniyatini o‘rgatmoq uchun eng avvalo o‘z fanini yaxshi ko‘rishi va yaxshi bilishi uning o‘zi madaniyatli bo‘lishi kasb madaniyatini yaxshi o‘zlashtirib olgan bo‘lishi lozim. Kasb-hunar yoki fanni sevadi hamda ustoziga o‘xshab madaniyatli bo‘lishga harakat qiladi. Agar fanni yoki kasb hunarni o‘qituvchining o‘zi yaxshi ko‘rmasa, uning o‘zi madaniyatli bo‘lmasa, kasb madaniyatidan bexabar bo‘lsa, u

holda qanchalik o‘quvchilarni majbur qilmasin baribir bu fan ularga hech qanday tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatmaydi, ularni madaniyatli ham qila olmaydi.

Dunyoda minglab kasblar bor. Mana shu rang-barang kasblar olamida qanday qilib mo‘ljal olish kerak? Hayot yo‘lini mehnat faoliyatini to‘g‘ri baholash uchun qaysi kasbni tanlagan ma’qul? Bu ishda sizga kasblar tasnifi yordam berishi mumkin. Maktabda o‘quvchilarni kasbga qiziqtirishda psixologlarni o‘rni beqiyos. Ular o‘quvchilarning qiziqishi va qobiliyatini aniqlagan holda o‘zlariga ishonchni mustahkamlashiga, kasblar tasnifi uchun har xil belgilarni asos qilishga yo‘naltirishda yordam beradi.

Qiziqish va qobiliyatlarni aniqlashning juda ko‘p usullari mavjud.

1. Qiziqish-chuqur o‘rganishlarni talab etadigan tushuncha bo‘lib, kasb tanlash masalasini hal etishda etarli hajmda o‘rganiladi.

2. Insonda qiziqishlar turli va cheksiz bo‘lishi mumkin. Qiziqishlar yosh o‘tgan sari va muhit o‘zgarganda ham o‘zgarib turadi.

3. Qiziqish inson hayotining yo‘nalishini belgilab beradi.

4. Qobiliyat –berilayotgan bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘zlashtira olishdagi insonning xususiyatidir.

Qobiliyatning o‘lchamlariga–bilim, malaka yoki yuqorilik kabi ko‘rsatgichlar kiradi. Qobiliyat doimo yuqori yoki past bo‘lavermaydi. Inson biror sohada qobiliyati yuqori bo‘lsa, bosqasida past bo‘lishi mumkin. O‘quvchilarning kasb tanlashdagi muhim vazifalaridan biri har kim o‘zining qobiliyatini yuqori ekanligini aniqlashdir. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish uchun ularning shaxsiy fikrini tinglash va hurmat qilish, shuningdek qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olish lozim. Kasbga yo‘naltirishda hech qachon shaxsiy manfaatni ko‘zlamaslik kerak. Moddiy mablag‘ni ko‘zlab tanlangan kasb hech qachon yuksalish bo‘lmaydi.

Xalq ta’limi tizimida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari: muammo va echimlar:

1. O‘z kelajagini aniq belgilab olgan, faqat kelgusida ta’lim yo‘nalishi va shu kasbni beruvchi o‘quv muassasasini tanlash uchun maslahatga muhtoj o‘quvchilar.

2. Qayerga o‘qishga borishini bilmaydigan, aniq kasbiy reja va kelajagi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lmagan o‘quvchilar.

3. Kelgusidagi kasbini tanlagan lekin ayrim sabablarga ko‘ra(sog‘ligiga to‘g‘ri kelmasligi, imkoniyatlarining chegaralanganligi) bu kasbni egallay olmaydigan o‘quvchilar.

4. Bir necha ko‘p hollarda yo‘nalishi bir biriga teskari bo‘lgan kasblarni tanlashda o‘z imkoniyatlari va kasbning avzalligi emas, balki atrofdagilar o‘rtoqlarining fikri, maslahatlariga asoslanadilar.

O‘quvchilarda kasbiy madaniyatni shakllantirish, ham psixologlar zimmasiga ulkan mas’uliyatni yuklaydi. Xo‘sh, kasbiy madaniyat nima?

Kasbiy madaniyatga hamisha uni shakllantiruvchi ma’naviy asos mujassam bo‘ladi. U hamisha g‘oyalar, bilimlar, inson maqsadlarining ramziy ifodasidir. G‘oyasiz, bilimsiz, maqsadsiz, kasbiy madaniyat ham shakllanmaydi. Ma’naviy madaniyat mahsuli esa moddiy shakldagina o‘z ifodasini topadi. Ular xuddi ana shu tarzda moddiylashadi va ijtimoiy hayot damiga aylanadi. Kasb madaniyati mohiyatini aniqlashtirib, aytishimiz mumkinki, kasb madaniyati yoki madaniyatining har qanday tashqi ifodalanishini insonning rivojlanish yoki kamolati darajasini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytdigan bo‘lsak, qiziqish bizning qaysi sohaga nisbatan alohida munosabatimiz borligini belgilab bersa, qobiliyat o‘sha sohadagi bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘zlashtira olishimiz imkoniyatlarini belgilab berar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 9 — 11-sinflari o‘quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 30.12.2021 yildagi 792-son qarori.
2. F.R.Abduraxmonov, Z.E.Abduraxmonova. Kasb psixologiyasi. Darslik. T. 2018. 176 b.
3. Hunarmandlar shahri. M.Ortiqova.Toshkent 2006-y
4. Kasb qanday tanlanadi? A.Jalolov.Toshkent 2010-y
5. Khimmataliev D.O., Khakimova M.F., Beknazarova Z.F., Abdullayeva R.M., Minlishev R.Z. Formatuon of professional competence of students of technical universities through interdisciplinary integration. University Press Journals. November 21, 2019.422-424
6. Matyoqubovna, A. R. (2022). Yoshlarni to‘g‘ri kasb tanlashga yo‘naltirish ijtimoiy voqelik sifatida. barqarorlik va etakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 2(11), 436-438.